

## **«O‘zbekkino» Milliy agentligining NIZOMI**

### **I. Umumiy qoidalar**

### **II. Agentlikning vazifalari va funksiyalari**

### **III. Agentlikning huquqlari va mas’uliyati**

### **IV. Agentlik faoliyatini tashkil etish**

### **V. Agentlik faoliyatining hisoboti va nazorati**

#### **I. Umumiy qoidalar**

1. «O‘zbekkino» Milliy agentligi (keyingi o‘rinlarda agentlik deb yuritiladi) kino san’ati, kino-videofaoliyatni amalga oshirish sohalaridagi vazifalarni hal etishga vakolatli bo‘lgan davlat boshqaruv organi hisoblanadi.

Agentlik o‘z faoliyatida Vazirlar Mahkamasiga hisobot beradi.

2. Agentlik o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlari va boshqa hujjatlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlariga hamda mazkur Nizomga amal qiladi.

3. Agentlik o‘z faoliyatini davlat boshqaruvining boshqa organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, jamoat birlashmalari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshiradi.

4. Agentlik va uning hududiy bo‘limlari faoliyatining xarajatlari respublika byudjeti va mahalliy byudjetlarning agentlik va uning hududiy bo‘limlari uchun ajratilgan mablag‘lar doirasida, shuningdek, qonun hujjatlariga zid bo‘lmagan boshqa manbalar hisobiga amalga oshiriladi.

5. Agentlik va uning hududiy tuzilmalari yuridik shaxslar hisoblanadilar, O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o‘z nomi yozilgan muhriga ega bo‘ladi.

#### **II. Agentlikning vazifalari va funksiyalari**

6. Agentlikning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

kino san’atining milliy madaniyatni rivojlantirish, jamiyat ma’naviy hayotini yuksaltirishdagi o‘rni va ahamiyatini hisobga olgan holda, bu sohani umumbashariy va milliy qadriyatlar uyg‘unligi asosida taraqqiy ettirishning ustuvor yo‘nalishlarini ishlab chiqish;

kino san’atida, kino-videofaoliyat sohasida davlat siyosatini amalga oshirish;

kinematografiya sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan, mulkchilik shaklidan qat’i nazar, korxonalar va kinostudiyalarni, ijodiy jamoalarni qo‘llab-quvvatlash, ularning manfaatlarini himoya qilish, tadbirkorlik va raqobat muhitini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

milliy kino san’atining eng yaxshi an’analarini izchil davom ettirish va boyitish maqsadida iqtidorli yosh kinematografchilarni tarbiyalash, ularning ijodiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga ko‘maklashish;

O‘zbekiston Respublikasi Davlat filmlar fondi faoliyatini bugungi kun talablari negizida tashkil etish;

kinofilmlar yaratish va ularni namoyish etish tizimini tanlovlar tashkil etish orqali takomillashtirish va qayta texnik jihozlash, aholiga kino-videoxizmat ko‘rsatish darajasini oshirish;

mualliflik huquqlari himoyalangan kino va video mahsulotlarini noqonuniy ravishda respublika hududiga olib kirishga, ulardan foydalanish, ijaraga berish va tarqatishga qarshi zarur choralar ko‘rish;

import va eksport qilinadigan kino va video mahsulotlariga ekspert bahosi berilishini amalga oshirish, respublika hududida kino va videofilmlar ko‘rsatish va ulardan texnik jihatdan foydalanishning qoidalarini belgilash;

kinematografiya sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, milliy kino mahsulotlarini jahon bozoriga olib chiqish, xorijiy kino ishlab chiqaruvchi tashkilot va kinoijodkorlar bilan aloqalarni kengaytirish, milliy kino san'atini xalqaro kinofestivallarda namoyish etish.

7. Agentlik o'ziga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi: kino san'ati, kino-videofaoliyatni amalga oshirish sohasidagi qonun hujjatlarining ijrosini ta'minlaydi;

tomoshabinlar talabini o'rganadi, zamonaviy janr va mavzularda filmlar yaratishga ko'maklashadi, milliy kino san'atining yuqori sifatga ega bo'lishi va xalqaro maydonga chiqishi uchun O'zbekiston kinoarboblari birlashmasi, yozuvchilar, rassomlar, bastakorlar, muhandis-texnik xodimlar, sportchilar, kaskaderlar va boshqa kasb vakillarining sa'y-harakatlarini birlashtiradi;

yosh avlod ongida milliy g'oya va milliy shuurni shakllantirish, zamondoshlarimizning mamlakatda amalga oshirilayotgan siyosiy, ilmiy va ijtimoiy islohotlardagi ishtirokini aks ettiradigan asarlar yaratishda ishtirok etadi;

qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasining litsenziyalash sohasidagi ishchi organi sifatida o'z vazifasini bajaradi;

rivojlanib kelayotgan xususiy kino va videostudiyalarga zarur metodik va amaliy yordam ko'rsatadi, ularning mahsulotlarini respublika kino ekranlarida keng namoyish etilishiga ko'maklashadi;

kinofilmlar ishlab chiqarish va ularni namoyish etish tizimini takomillashtirish choralari ko'radi, bunda ijodiy jamoalar, kinoijodkorlar va turli mulk shaklidagi kinostudiyalar o'rtasida film yaratish bo'yicha tanlovlar (tenderlar) tashkil etadi;

kino tizimiga kiruvchi korxonalarni moddiy-texnika bazasini yangilanishiga ko'maklashadi, sohani qayta texnik jihozlash dasturini ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

respublika hududida kino va videofilmlar ko'rsatish va ulardan texnik jihatdan foydalanishning qoidalarini belgilaydi, xususiy prokat tizimini rivojlantirishga ko'maklashadi;

O'zbekiston kinoarboblari uyushmasi apparati faoliyatini a'zolik badallari, turli ijodiy uchrashuvlar va tadbirlar hisobidan ta'minlaydi;

kinematografiya sohasi uchun kadrlar tayyorlaydigan ta'lim muassasalari bilan doimiy hamkorlik o'rnatadi, ularning o'quv rejaları, dasturlari va mutaxassislarni o'qitish jarayonini takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritadi, tizim xodimlari uchun qisqa muddatli malaka oshirish o'qishlari va seminarlar tashkil etadi;

mulkchilik shakli va idoraviy mansubligidan qat'i nazar, kino-videofaoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va xususiy tadbirkorlar uchun teng sharoitlar yaratilishini, ularning manfaatlarini himoya qilinishini va xo'jalik faoliyatiga noqonuniy aralashuvga yo'l qo'yilmaslikni ta'minlaydi;

kino va video mahsulotlarni ishlab chiqarish, ko'paytirish, dublyaj qilish, prokat va namoyish etish hamda sotishga oid standartlash bo'yicha texnik-iqtisodiy siyosatni yuritadi;

kinofilmlarni yaratish, namoyish etish, agentlik korxonalarini moddiy-texnika bazasini yangilash uchun ajratilgan mablag'larning maqsadli va samarali sarflanishini ta'minlaydi;

kino-video prokat tizimini rivojlantirish, yaratilgan filmlarni video kasseta va boshqa turdagi manbalarga nusxasini ko'chirib tarqatish orqali agentlik korxonalarining qo'shimcha mablag' manbalarini shakllantirishiga ko'maklashadi;

Davlat filmlar fondi faoliyatini yuritish bilan bog'liq dasturlarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

xorijiy kinostudiya va telekanallarning O'zbekiston Respublikasi hududida badiiy kino va videofilmlarni suratga olish bo'yicha murojaatlarini o'rganib, tegishli taklif va tavsiyalar beradi;

kino san'ati sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantiradi, milliy kino mahsulotlarini jahon bozoriga olib chiqish uchun xalqaro kinoanjuanlar va kinofestivallarda faol ishtirok etadi, xorijiy kino ishlab chiqaruvchi tashkilot va kinoijodkorlar bilan muntazam aloqalar o'rnatadi.

8. Agentlik o'ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bevosita, shuningdek, o'z hududiy tuzilmalari hamda o'z tizimidagi tashkilotlar orqali hal qiladi.

9. Agentlik qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa funksiyalarni ham bajaradi.

III. Agentlikning huquqlari va mas'uliyati

10. Agentlik o'ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda davlat boshqaruvi va boshqa organlar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslardan ularning kino-videofaoliyatiga doir zarur ma'lumotlar, hujjatlar va materiallarni so'rab olish;

kino-videofaoliyatni amalga oshirish sohasidagi qonun hujjatlarining bajarilishini belgilangan tartibda nazorat qilish;

kinematografiya sohasiga doir qonun hujjatlarini takomillashtirish bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritish.

Agentlik O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

11. Agentlik o'z vakolatlari doirasida barcha vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, joylardagi davlat hokimiyati organlari, tashkilotlar, muassasalar va korxonalar uchun bajarish lozim bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilishga haqlidir.

Agentlik zarur hollarda boshqa vazirlik, davlat qo'mitalari va idoralar bilan birgalikda qo'shma qarorlar va boshqa hujjatlarni qabul qilishga haqlidir.

12. Agentlik o'ziga yuklatilgan vazifalarning samarali bajarilishi uchun javobgardir.

IV. Agentlik faoliyatini tashkil etish

13. Agentlikni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod qilinadigan bosh direktor boshqaradi.

Bosh direktorning ikki nafar o'rinbosari, shu jumladan, bir nafar birinchi o'rinbosari bo'ladi.

Bosh direktor o'z maqomiga ko'ra vazirga, bosh direktorning birinchi o'rinbosari va o'rinbosari tegishli ravishda vazirning birinchi o'rinbosari va o'rinbosariga tenglashtiriladi.

14. Bosh direktor:

Agentlik faoliyatiga yakka tartib asosida umumiy rahbarlikni amalga oshiradi va agentlikka yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishi uchun shaxsan javob beradi;

osh direktor o'rinbosarlarining vakolatlarini belgilaydi va ular o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi, agentlik tizimidagi boshqa mansabdor shaxslarning vakolatlarini va mas'ullik darajasini belgilaydi;

agentlik tizimi xodimlari tomonidan bajarilishi lozim bo'lgan buyruqlar chiqaradi hamda ularning ijrosini nazorat qiladi;

belgilangan xodimlar cheklangan soni va mehnatga haq to'lash fondi doirasida agentlik markaziy apparati tuzilmasiga o'zgartishlar kiritadi, shtatlar jadvalini, agentlik markaziy apparati va uning hududiy bo'limlari xarajatlari smetasini tasdiqlaydi;

belgilangan tartibda agentlikning tarkibiy va hududiy bo'limlari nizomlarini tasdiqlaydi;

belgilangan tartibda agentlik markaziy apparati xodimlarini, hududiy bo'lim rahbarlarini lavozimiga tayinlaydi va vazifasidan ozod qiladi.

Bosh direktor qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Oldingi

tahrirga

qarang.

15. Agentlikda boshliq (hay'at raisi), uning o'rinbosarlari (lavozimiga ko'ra), shuningdek Agentlik faoliyatining asosiy yo'nalishlarini muvofiqlashtiruvchi tarkibiy bo'linmalari rahbarlaridan iborat tarkibda hay'at tashkil etiladi.

Hay'atning a'zolari soni va shaxsiy tarkibi Boshliqning taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Hay'at quyidagilar bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqadi:

Agentlik faoliyatining kino san'atining jamiyat ma'naviy hayotini yuksaltirishdagi o'rni va ahamiyatini hisobga olgan holda, bu sohani umumbashariy va milliy qadriyatlar uyg'unligi asosida taraqqiy ettirishning ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqish bo'yicha ushbu Nizomda belgilangan asosiy yo'nalishlarini tayyorlash va amalga oshirish; «O'zbekkino» milliy agentligi nomenklaturasiga kiradigan lavozimlarga kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish, tayyorlash va qayta tayyorlash; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlarida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga qarorlari va farmoyishlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirish bo'yicha ijro intizomini mustahkamlash, ularning o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini ta'minlash uchun Agentlik rahbarlari va xodimlarining shaxsiy javobgarligini oshirish.

Hay'at Agentlik vakolatiga taalluqli boshqa masalalarni ham ko'rib chiqish huquqiga ega.

Hay'at majlisiga Agentlik vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha boshqa vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar rahbarlari taklif etilishi mumkin.

Hay'at uning majlisida tarkibining yarmidan ko'pi qatnashgan taqdirda vakolatli bo'ladi. Ko'rib chiqilayotgan masalalar bo'yicha qarorlar oddiy ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi.

Hay'at qarorlari bosh direktorning buyruqlari bilan amalga oshiriladi. Bosh direktor va hay'at a'zolari o'rtasida kelishmovchiliklar mavjud bo'lgan taqdirda bosh direktor paydo bo'lgan kelishmovchiliklar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga axborot bergan holda mustaqil ravishda qaror qabul qiladi. Hay'at a'zolari ham o'z fikr-mulohazalarini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga xabar qilishlari mumkin.

Hay'at faoliyati tartibi uning hay'at tasdiqlaydigan reglamentida belgilanadi.

(15-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 5 iyundagi 108-sonli qarori tahririda — O'R QHT, 2010 y., 23-son, 183-modda)

16. Agentlikda doimo faoliyat yurituvchi professional yetuk, talabchan mutaxassislardan iborat Badiiy kengash tuziladi va uning Nizomi belgilangan tartibda tasdiqlanadi. Badiiy kengashning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

mamlakatimizda yaratilayotgan badiiy va hujjatli kino-videofilmlar ma'naviy va badiiy saviyasini oshirish, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar va talablarni aks ettirish; import va eksport qilinadigan kino va video mahsulotlariga ekspert bahosi berilishini ta'minlash.

17. Agentlikning hududiy tuzilmalari agentlik tarafidan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan o'zaro kelishilgan holda tasdiqlangan nizomlar asosida mustaqil yuridik shaxs sifatida faoliyat yuritadi.

Agentlik hududiy tuzilmalari rahbarlari Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan kelishilgan holda, bosh direktor tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

V. Agentlik faoliyatining hisoboti va nazorati

18. Agentlik o'z faoliyatida hisobotni belgilangan tartibda yuritadi.
19. Agentlik davlat byudjeti hisobidan ajratilgan byudjet mablag'larining uning tizimiga kiruvchi korxonalar tomonidan samarali va maqsadli ishlatilishi bo'yicha nazorat yuritadi va har chorakda Moliya vazirligiga hisobot beradi.
20. Agentlik moliyaviy faoliyatining nazorati o'rnatilgan tartibda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Bosh nazorat-taftish boshqarmasi va uning hududiy bo'limlari tomonidan amalga oshiriladi.